tugul, xotirjamlikka ham erisha olmas ekan. Mamlakatimizda kambag‘allik ko‘p yillar davomida “yopiq mavzu” bo‘lib keldi. Bu kategoriyaning o‘rniga “kam ta’minlanganlik”, “ehtiyojmandlik”, degan tushunchalardan foydalandik. Lekin kambag‘allik darajasi kamayib qolmadi. Tan olaylik, keyingi to‘rt yildagi ochiqlik siyosati tufayli “qozonda bori cho‘michga chiqdi”. Xalq bilan muloqotning samarali mexanizmi yo‘lga qo‘yilgach, haqiqiy ahvol, ya’ni odamlarning aslida qanday hayot kechirayotgani, ularning eng og‘riqli nuqtalari oshkor bo‘la boshladi. Mamlakatimizdagi islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdir. Shu bois Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqimiz turmushini yaxshilash yo‘lida juda katta vazifalarni amalga oshirishga kirishildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” PF-29-son [1] va 2021-yil 11-avgustdagi “Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6277-son [2] Farmoni hamda 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-31-son qarori [3] bugungi kun talabidan kelib chiqib qabul qilingan yana bir muhim huquqiy asosdir. Keyingi yillarda bu borada davlat siyosatini markazdan mahalla darajasigacha yuritadigan vertikal tizim joriy qilingani quvonarli yangilik. Yoshlar masalalari bo‘yicha har bir tumanda alohida hokim o‘rinbosari, xotin-qizlar masalalariga har bir mahallada alohida rais o‘rinbosari mas’ul etib belgilanishi ham e’tirofga arziydigan voqelik. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur yo‘nalish doirasida mahallalar va oilalarda muammolarni aniqlash, ularning yechimi bo‘yicha takliflar berish va kerakli chora-tadbirlarni amalga oishirlishini taqozo etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda iqtisodchi ilmiy izlanuvchilar, tegishli vazirlik mutaxassislari tomonidan davlatimizda kambag‘allikni qisqartirish masalasida keng ko‘lamli izlanishlar olib borishmoqda. Xususan, i.f.d. M.Kalonov o‘zining ilmiy tahliliy maqolasida “kambag‘allik” tushunchasini shu kungacha “yopiq mavzu” bo‘lib kelganligini va u “kam ta’minlanganlik”, “ehtiyojmandlik”, degan tushunchalardan farq qiladi, deya ta’kidlagan [4]. O‘zbekistonda aholi sonining yuqori sur’atlar bilan o‘sishi tufayli demografik siyosat oilani rejalashtirish va o‘lim darajasini kamaytirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shunga asoslanib aytish mumkinki, davlatning demografik siyosati – turmush darajasini oshirish va kambag‘allikni kamaytirish vositalaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi hukumati endilikda oilani rejalashtirish siyosatiga mamlakatda kambag‘allik darajasini kamaytirish, aholi salomatligi va farovonligini oshirishning muhim omili sifatida qarashi maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan [5]. N.Ernazarova esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, aholi bandligi va daromadini oshirishda eng asosiysi tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik sohalari, jumladan, oilaviy biznes sohasi faoliyati muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda yetakchi o‘rinni egallashi haqidagi fikrni ilgari surgan [6]. Iqtisodchi olim R.Xasanov quyidagicha xulosalar bergan: O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurash haqida gapirganda turli mintaqalarda, shahar yoki qishloqlarda yashaydigan turli yoshdagi odamlar, erkaklar va ayollar uchun kambag‘allikning sabablari juda farq qilishini hisobga olishimiz kerak. Shu nuqtayi nazardan qashshoqlikka qarshi kurash juda murakkab va ko‘p qirrali vazifadir. Shu munosabat bilan muhtoj odamlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy yoki tabiiy yordam ko‘rsatish orqali qashshoqlik muammosini hal qilishda jiddiy ijobiy natijaga erishish mumkin emasligi ayon bo‘ladi. Albatta, aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash zarur, ammo kambag‘allikning turli xil sabablarini hisobga olgan holda, unga qarshi kurashda har qanday muhim yutuqlarga odamlar o‘zlarining moddiy muammolarini mustaqil hal eta oladigan va o‘zlarini zarur daromadlari bilan ta’minlaydigan sharoitlar yaratilgandagina erishish mumkin [6].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oilalarda kambag‘allikni qisqartirish omillarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan izlanishlarimiz davomida tadqiqot metodologiyasining tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash kabi usullar qo‘llanilgan. Natijada, mamlakatimiz aholisining kambag‘allikdan qutqarishda avvalambor, xalqning turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni yanada qo‘llab-quvvatlashga doir ishlar tahlili ilmiy xulosalar shakllantirishga asos bo‘ldi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kambag‘allik – bu hayot uchun muhim bo‘lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo‘lib, o‘zi xohlagan ishlarni davom ettirishi mumkin bo‘lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhni iqtisodiy holatining o‘ziga xos xususiyatidir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirda jahon bo‘ylab kambag‘allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umumqabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta’rifi ishlab chiqilmagan. Har

bir mamlakat oʻzi uchun belgilangan kambagʻallik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi. Oʻrganishlar natijasiga koʻra, hududlarda, ayniqsa, qishloq joylarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbayiga ega emas. Dunyoning boshqa mamlakatlaridagi singari bizda ham kambagʻal qatlam mavjud. Ular taxminan 12-15 foizni tashkil etishi ham rost. Bu 4-5 million nafarga teng odam degani. Qarang, ana shu yurtdoshlarimizning bir kunlik daromadi oʻtgan yil boshida Prezidentimiz qayd etganidek, 10-13 ming soʻmdan oshmas ekan [4].

Kambagʻallikdan faqat oʻsha qatlamga mansub odamlar jabr chekadi, deyish yanglish tushuncha. Bu nafaqat aholi, balki davlatning ham katta dardi, hatto, aytish mumkinki, fojiasidir. Bu holat xalqning sogʻligʻi, mehnatga layoqati va ilmiy salohiyatiga putur yetkazadi. Shuningdek, uning oqibati Davlat budjetining pasayishi va siyosiy jarayonlarning keskinlashishiga sabab boʻladi. Chunki kambagʻal toifa jadal iqtisodiy oʻsishdan foyda koʻra olmaydi. Jamiyatning turli sohalarida ishtirok etish imkoniyati ham cheklangan. Davlat esa bepul oʻrta taʼlimni taʼminlash, tibbiy xizmatlarni asosiy paketini kafolatlash, ijtimoiy zaif, deb tasniflangan guruhlarga ixtisoslashgan yordam va kam taʼminlangan oilalarga imtiyozlar berishga majbur. Eng yomoni, kambagʻallik holatiga tushib qolishdan koʻra, undan chiqib ketish koʻp karra qiyinroq. Shu bois jamiyatimizda kambagʻallikni qisqartirish ayollar va yoshlar rolini oshirish, birinchi navbatda, ularga malaka berish hamda bandligini taʼminlash zarur. Bu vazifani samarali va sifatli bajarmasdan turib ayollar hamda yoshlar manfaatlari bilan bogʻliq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy masalalarni tizimli hal etish imkonsiz.

Kambagʻallikka qarshi kurash, uni qisqartirishga tizimli yondoshuv va aniq chora tadbirlar belgilash masalasi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar Oliy Majlisga Murojaatida birinchi marta kun tartibiga olindi. Unda xalqaro tajribani inobatga olgan holda, kambagʻallikni aniqlash mezonlari va hisoblash uslublarini ishlab chiqish, kambagʻallikka qarshi kurash boʻyicha samarali vositalarni qoʻllash amaliyotini jorish etish vazifasi belgilangan.

Davlatimiz rahbari tomonidan “Aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi farmon qabul qilindi. Ushbu farmon xalqning turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni yanada qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan muhim hujjat boʻldi. Kambagʻallikni qisqartirish borasida yagona davlat siyosatini yuritish maqsadida Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi. Oʻzbekistonda kambagʻallikka qarshi kurashish 2017-yildan boshlab mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yoʻnalishi qilib belgilangan. Respublika va hududlar miqyosida ehtiyojmand oilalarni qoʻllab-quvvatlash maqsadida 15 dan ortiq meʼyoriy hujjatlar qabul qilindi. Muhtojlikni aniqlash, shaffoflikni taʼminlash va manzilli ijtimoiy himoyani amalga oshirish maqsadida “Yagona ijtimoiy himoya registri” tashkil etildi va maʼlumotlarni yagona tizimi tashkil etildi. Iqtisodiy tahlillarga koʻra kambagʻallikni oylik yoki nafaqa miqdorini koʻpaytirish, kredit berish bilan qisqartirib boʻlmaydi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy oʻsish hisobiga erishiladi.

Yurtimizda aholining muayyan qatlami oʻrtasida kambagʻallik mavjudligi birinchi marta eʼlon qilingan kundan boshlab uni qisqartirish boʻyicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Barcha tuman va shaharlarda ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash boʻyicha mutlaqo yangi tizim – “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” joriy etildi. Buning natijasida ular bilan tizimli, manzilli ish yoʻlga qoʻyildi. Sektor rahbarlari va mutasaddi idoralar vakillari tomonidan har bir mahallada holat oʻrganildi, yoshlar va ayollar bilan birma-bir muloqot qilindi, ehtiyojlari, qiziqishlari aniqlandi hamda shu asosda manzilli choralar koʻrildi. Ishsiz yoshlar va xotinqizlarda motivatsiya uygʻotib, kasbiy koʻnikmalar shakllantirish, psixologik, huquqiy, tibbiy va moliyaviy koʻmak berildi. “Ijtimoiy shartnoma” tajribasi keng qoʻllanish uchun normativ bazasi ishlab chiqilib Buxoro viloyatida pilot tarzda qoʻllandi. Bu tizim orqali koʻplab fuqarolarning bandligi taʼminlandi. Oʻzini oʻzi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda koʻpgina cheklovlarning bekor qilinishi tufayli ming-minglab fuqarolarimiz mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yoʻlga qoʻydi. Umuman, pandemiya sharoitida oʻz ishini yoʻqotgan aholini qoʻllab-quvvatlash uchun davlat va hukumat barcha chora-tadbirlarni koʻrdi. Kambagʻallikni qisqartirish va aholining daromad manbalarini oshirish maqsadida “daftar”lar bilan ishlash (jazoni oʻtab qaytganlarning ijtimoiy moslashuvi, yoshlar va ayollarni psixologik qoʻllab-quvvatlash, ularni chet tillari va kasb-hunarga oʻqitish boʻyicha) nodavlat notijorat tashkilotlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish va hamkorlikni kengaytirish lozimligi belgilab olindi.

Keyingi yillarda xizmat koʻrsatish sohalari bilimlar iqtisodiyoti va innovatsiyalarga intensiv ravishda integratsiya qilinmoqda. Ilmiy faoliyat va tadqiqotlar natijalari koʻproq joriy qilinayotgan kompaniyalarda biznes jarayonlarini rivojlantirishda muhim omil boʻlib, uning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu esa, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ichida fan sig'imi yuqori boʻlgan sanoat ishlab chiqarishi singari xizmat koʻrsatish sohasi ham jadal surʼatlarda rivojlanib bormoqda.

Bizning fikrimizcha, xizmat koʻrsatish sohasidagi innovatsion faoliyat – bu xizmatlar bozorida taqdim yetilishi rejalashtirilgan va realizatsiya qilinadigan yangi yoki takomillashtirilgan xizmatni yaratish jarayonida ilmiy-texnik va ijodiy faoliyat natijalaridan amalda foydalanishdir.

Dunyoning barcha davlatlarda ilmiy-tadqiqot natijalarini moliyalashtirishda sanoat kompaniyalari (Yaponiya va Janubiy Koreyada 72,4 %, Finlyandiyada 70,2 %, AQSHda 68,2 %)ning ulushi ancha yuqori, ular, asosan, tadqiqot va loyihalarni realizatsiya qiladilar (75,3 %) % – AQSHda, 75,1 % – Shvetsiyada, 74 % – Janubiy

Koreyada, 71 % – Yaponiyada). Rivojlanish darajasi nisbatan pastroq davlatlarda hukumat tadqiqot ishlarini yuqori hajmda moliyalashtirib, qo‘llab-quvvatlaydi (Meksikada – 65,3 %, Turkiyada – 47,7 %), asosiy tadqiqotlar esa universitetlarda amalga oshiriladi (38,6 % va 35 % mos ravishda 55,3 %).

Ma’lumki, Rossiya O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonlik mehnat muhojirlarining asosiy qismi Rossiyada mehnat qiladi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligining ma’lumotiga ko‘ra, mart oyida Rossiyadan O‘zbekistonga 50 ming nafar mehnat muhojiri qaytib kelib, mamlakatdagi ishsizlar safiga qo‘shilgan edi. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish sur’atlarining sekinlashishi fonida kambag‘allik darajasi ortmasligini ta’minlash hukumat uchun muhim va dolzarb vazifaga aylanadi. Jamiyatda kambag‘allik ko‘rsatkichlari va ularni monitoring qilish parametrlarini aniqlash, kambag‘allikni qisqartirishning samarali vositalaridan foydalanish kabi chora-tadbirlar sohaga doir davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sirasiga kiradi.

Lekin O‘zbekiston sharoitini, oddiygina demografik holatni ham e’tiborga olish zarur. Mehnat bozoriga kirib kelayotgan mutaxassislar soni bilan mavjud ish o‘rinlarining soni bir-biriga nomutanosib. Yetarli miqdorda ish o‘rinlari yaratilmagani bois odamlar ishsiz qolmoqda. Shu tufayli tashqi mehnat migratsiyasiga ehtiyoj paydo bo‘lgan. O‘zbekistondagi “ortiqcha” ishchi kuchi shu yo‘sinda o‘z kunini ko‘rib kelmoqda. Aytmoqchi bo‘lganimiz, ish o‘rinlarini yaratish orqali kambag‘allikni qisqartirishda, avvalambor, mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash kerak deb hisoblaymiz. Biz tom ma’noda erkin iqtisodiyotni qura olsak, shunda iqtisodiyot tarmoqlarining o‘zi kerakli miqdorda ish o‘rinlarini yaratib, aholini ish bilan ta’minlaydi va pirovard natijada O‘zbekistonda kambag‘allar soni kamaya boshlaydi.

Tadqiqotlarimizning natijalari kambag‘allikni qisqartirishning boshqa yo‘llari ham borligini ko‘rsatmoqda. Shulardan biri – aholiga tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga imkon berish. Aytaylik, bir kishi kichik biznesini yo‘lga qo‘yib, uchta odamni ish bilan ta’minlaydi. Bu yo‘ldan ham borsa bo‘ladi, lekin odatda xalq ichidan tadbirkorlar ko‘p chiqmaydi. Har qanday mamlakatda ular aholining 1-2 foizini tashkil qiladi, xolos. Risk darajasi yuqorilishi tufayli hamma ham tadbirkor bo‘lolmaydi. Mana shu 1-2 foiz qolgan yuzlab odamlarni ish bilan ta’minlaydi. Tajribadan ma’lumki, mehnat bilan band aholining 80-90 foizi tadbirkor emas, o‘sha tadbirkorga yoki davlat korxona va idoralariga yollanib ishlayotgan odamlar bo‘lib chiqadi.So‘zsiz, mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish kerak. Bu yerda biz ta’kid etmoqchi bo‘lgan xususiy mulk, tadbirkorning huquqiy himoyasi, qonun ustuvorligini ta’minlash, biznes muhitini yaxshilash masalalari juda muhim. Zotan, ular kambag‘allikni qisqartirishga doir siyosatning zaruriy komponentlari sirasiga kiradi.

Samarqand viloyatida, xizmat ko‘rsatish sohaini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish aholi farovonligi va ish bilan bandlik masalalarining hal bo‘lishini ta’minlovchi muhim omildir. Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida sanoat rivojlanishidan keyingi bosqichining muhim sektori hisoblangan servis iqtisodiyoti ahamiyatini oshishi va mamlakatning yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarishda bevosita rolining o‘sib borishi bilan izohlanadi.




1-rasm: Samarqand viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi asosiy ko‘rsatkichlari hajmi [7], (mlrd. so‘m).

Kambag‘allikni qisqartirishning yana bir samarali vositalaridan biri – ijtimoiy innovatsiyalar. Ijtimoiy innovatsiyalarni yaratish va joriy etish amaliyoti O‘zbekistonda 2012-yilda boshlangan. Bu bo‘yicha BMT Taraqqiyot dasturi yirik loyihani amalga oshirgandi. Ungacha davlat institutlari mazkur sohani qo‘llab-quvvatlash tugul, qiziqish ham bildirmagan. Donor tashkilotning yordami bilan O‘zbekistonda ijtimoiy innovatsiyalar joriy qilina

boshlandi. Ular koʻproq samarali boshqaruv yoʻnalishida yoshlarni ragʻbatlantirish bilan bogʻliq tashabbuslar edi. Toshkent shahri va respublika hududlarida ijtimoiy muammolarga yechim topish maqsadida shunday dastur va loyihalar moliyaviy ragʻbatlantirilgan.

Oʻzbekistonda ijtimoiy innovatsiyalar rivojlangan, deb boʻlmaydi. Biroq tan olish kerak, sohasiga e'tibor katta. Aslida innovatsiyalarni rivojlantirish xususiy sektorning ishi. Innovatsion bozorni rivojlantirish hamda intellektual mehnat mahsuliga asoslangan innovatsiyalarni joriy etish uchun kuchli ilmiy baza, albatta, bozor boʻlishi kerak.

Hozircha Oʻzbekistonda innovatsiyalar bozori shakllanmagan. Buning uchun sarmoya va sarmoyadorlar yoʻq. Innovatsion tadbirkorlik katta mablagʻni talab qiladi. Shu bois 2016-yilda mahalliy innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmi yoʻlga qoʻyila boshlandi. Dunyoda innovatsiyalarga sarmoya jalob qilish oson. Chunki bunga juda koʻp pul ajratiladi. Ishni innovatsion ekotizimni yaratishdan boshlash kerak. U koʻplab tarkibiy qismlardan iborat. Tadqiqotlarimiz mazkur tizim Oʻzbekistonda endigina shakllanayotganligini koʻrsatmoqda. Ijtimoiy innovatsiyalar kelajagi porloq soha. Rivojlangan mamlakatlarda shunday konsept borki, davlat siyosati hamda siyosiy institutlarning kuchi yetmayotgan joyda ijtimoiy innovatsiyalar ishlaydi. Ya'ni fuqarolar mustaqil ravishda oʻzlari uchun ijtimoiy qulaylik yaratishga harakat qiladi.Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa buning teskarisi – ijtimoiy innovatsiyalardan odatda jamiyatning faqat asosiy ehtiyojlarini qondirishda foydalaniladi. Deylik, qaysidir qishloqda ichimlik suvi muammosi boʻlsa, mahalliy aholi oddiy texnologiya oʻylab topib, shu muammoni hal qilishi mumkin. Elektr energiya yetkazishda ham innovatsiyalar ishlatiladi. Masalan, Braziliyaning qashshoq hududlarida odamlar suvdan boʻshagan plastmassa idishlarga muayyan material joylashtirib, uylarining tomiga oʻrnatib quyosh nuridan elektr energiyasini olmoqda. Bunday innovatsiyalar asosan lokal muammolar yechimiga xizmat qiladi. Makroinnovatsiyalar ham bor. Ularning amaliyotga tatbiq etilishi jamiyat hayotida tizimli oʻzgarishlarga olib keladi. Masalan, oʻz vaqtida AQSHda faqat puldor odamlar oliy ma'lumotli boʻla olgan. Ma'lum vaqt oʻtib, jamiyatdagi yemirilishlar natijasida vaziyat oʻzgardi. Hozir Amerikada oliy ta'lim pulli boʻlishiga qaramay, oddiy oilalarning bilimli farzandlari universitetga kira olyapti. Bu jamiyatda xalq ravnaqiga xizmat qiladigan ijtimoiy mexanizmlar yaratilgani va ular haqiqatdan ham ishlayotganidan, oʻz samarasini berayotganidan dalolatdir.

Ijtimoiy innovatsiyalarni turli sohalarda tatbiq etsa boʻladi. Atrof-muhit muhofazasi boʻladimi, kambagʻallik yoki samarali boshqaruv muammolari boʻladimi, ta'lim sohasida ham ijtimoiy innovatsiyalarni joriy etish mumkin. Tahlillarimiz nizolarni hal etishda ijtimoiy innovatsiyalardan foydalanish mumkinligidan dalolat beradi. Iqtisodiyotda ham ijtimoiy innovatsiyalar qoʻl keladi. Yuqorida kambagʻallik parametrlari haqida ta'kid etdik. Mana shu parametrlar negizidagi muammolar yechimi sifatida ijtimoiy innovatsion loyihalar qoʻllanilsa, albatta, ijobiy natijaga erishiladi. Chunki ijtimoiy innovatsiyalarning xususiyati shundaki, ular odamlarning ehtiyojidan kelib chiqib yaratiladi va pilot loyiha sifatida muayyan ijtimoiy doirada, masalan, qaysidir uy xoʻjaligida sinab koʻriladi. Sinov jarayonida aholining oʻzi sizga qanday ijtimoiy muammosi borligi va uni qaysi yoʻllar bilan yechish mumkinligini aytadi. BMT Taraqqiyot dasturiga oʻxshash yirik rivojlanish tashkilotlari oʻzi konkret hududga kelib qayerda yoʻl, qayerda kutubxona, bogʻcha yoki maktab qurishni hal qiladi. Ijtimoiy innovatsiyalarda esa aksincha, qayerda nima qilish kerakligini davlat yoki xalqaro tashkilotlar emas, balki jamiyat vakillari aytadi. Ya'ni odamlar ekspert vazifasini bajaradi hamda ijtimoiy loyihada bevosita ishtirok etib, uning ijrosiga baravar bosh qoʻshadi. Aslida yuqoridan koʻrsatma asosida boshlangan loyiha xalqqa keragi yoki qizigʻi boʻlmasa, odamlar uni qabul qilmaydi. Masalan, biron qishloqqa kelib mana sizlarga quyosh batareyasi, endi undan bemalol foydalanib uylarni yoritish hamda isitishingiz mumkin, deb barcha sharoit yaratib beriladi. Ammo vaqt oʻtib qarabsizki bu uskuna yo buzilgan, yoki biron qismi oʻgʻirlangan boʻladi. Oddiy narsada, agar tashqaridan odam kelib muammoingiz bilan qiziqsa va uni siz istagandek emas, balki oʻzi bilgandek hal qilishga urinsa, albatta, unga yo ishonmaysiz, yoki qilingan ish samara bermaydi. Bil'aks muammo yechimi yuzasidan iste'molchi bilan maslahatlashilsa, jonli muloqot yuzaga keladi va bunday loyihadan natija chiqadi. Innovatsiyalar uchun kraudsorsing, ya'ni maqsadli guruhdan fikr olish juda muhim. Toʻgʻri, iste'molchilarda innovatsiyani yaratishda bilim yoki koʻnikma boʻlmasligi mumkin, lekin gʻoya va taklif ulardan chiqishi kerak.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlatning inson kapitalini eng quyi bosqichlaridan puxta shakllantirishga, aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga, shahar va qishloq joylari orasidagi tafovutlarini kamaytirishga qaratilgan siyosati ushbu sohalardagi rivojlanish koʻrsatkichlarida oʻz aksini topgan. Bu yoʻnalishlarda davom ettiriladigan ishlar boʻyicha maqsadli koʻrsatkichlar qabul qilingan konsepsiya, dasturlar doirasida tasdiqlangan hamda ularni amalga oshirish boʻyicha yoʻl xaritalari ishlab chiqilgan. Ushbu vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi aholi turmushining yanada farovonlashishiga hamda mamlakatning barqaror iqtisodiy oʻsishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurash haqida gapirganda, turli mintaqalarda, shahar yoki qishloqlarda yashaydigan turli yoshdagi odamlar, erkaklar va ayollar uchun kambag‘allikning sabablari juda farq qilishini hisobga olishimiz kerak. Shu nuqtayi nazardan, qashshoqlikka qarshi kurash juda murakkab va ko‘p qirrali vazifadir. Shu munosabat bilan, muhtoj odamlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy yoki tabiiy yordam ko‘rsatish orqali qashshoqlik muammosini hal qilishda jiddiy ijobiy natijaga erishish mumkin emasligi ayon bo‘ladi.

Albatta, aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash zarur, ammo kambag‘allikning turli xil sabablarini hisobga olgan holda, unga qarshi kurashda har qanday muhim yutuqlarga odamlar o‘zlarining moddiy muammolarini mustaqil hal eta oladigan va o‘zlarini zarur daromadlari bilan ta’minlaydigan sharoitlar yaratilgandagina erishish mumkin.

Yuqori zamonaviy texnika va texnologiyalar, ilmiy tadqiqot ishlanmalari, innovatsion loyihalar va boshqaruv yangiligiga ega bo‘lgan innovatsiyalarni xizmat ko‘rsatish jarayonlariga joriy qilmasdan turib raqobatbardosh yangi xizmatlarni yaratish va realizatsiya qilishning imkoniyati mavjud emas. Bular tadqiqotimizning natijalariga tayangan holda quyidagi takliflarimizda namoyon bo‘ladi:

1. Innovatsiyalarni rivojlantirishda, xususan, xizmat ko‘rsatish sohasida bir qator tashkiliy muammolarga yechim topishni taqazo etadi. Buning uchun xorijiy mamlakatlarda mavjud innovatsiyalarning tajribalarini o‘rganish va uni natijaviy jihatlarini qo‘llash uchun zamonaviy ilmiy bazalarni yaratish kerak;

2. O‘zbekistonda endigina shakllanayotgan ijtimoiy innovatsiyalarga strategik nuqtayi-nazardan kelib chiqib yondoshilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi..Chunki jahon tajribasi davlat siyosati hamda siyosiy institutlarning kuchi yetmayotgan joyda ijtimoiy innovatsiyalar sinergetik samaradorlik natijalarini keltirib chiqaruvchi konsept sifatida foydalanish kerak;

3. Iqtisodiy tizimda ijtimoiy innovatsiyalar kambag‘allik parametrlarini qisqartirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi, uning mehnat unumdorligini oshirish, aholi daromadlarni ko‘paytirish, bandlik, kambag‘allikni qisqartirish va boshqa makroiqtisodiy o‘lchamdagi muammolarni bartaraf etuvchi stimulyator sifatidagi xususiyatlaridan kelib chiqib qaror qabul qilish bugungi kunimizning buyuk zaruriyati hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” PF-29-son Farmoni. 03.12.2021-yil. https://lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6277-son Farmoni. 11.08.2021. https://lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-31-son qarori. 03.12.2021-yil. https://lex.uz.
4. Kalonov M. “Kambag‘allikni qisqartirish: imkoniyat va harakatlar qanday natija beradi?”, “Xalq so‘zi” gazetasining 2021-yil 11-fevral 30-soni.
5. Abduramanov X.X. Demografiya sohasida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning strategik yo‘nalishlari // Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali. V son. Sentabr - oktyabr, 2020. – 144-153-betlar. https://journal.bfa.uz/maqola/BFA_maqola_5_son.pdf
6. Ernazarova N.N. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021-yil. 253-258-betlar. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/27_Ernazarova.pdf
7. Manba: Samarqand viloyat Davlat statistika Bosh boshqarmasi ma’lumotlari.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar maʼsul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi maʼlumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan.